

TEMIR YO'L TRANSPORTIDA LOGISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI

Jabborov Mirabbos Tolmas o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, 2-kurs magistr

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida temir yo'l logistika xizmatlarining hozirgi va kelajakdagi ishlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: logistika, agrologistika, samaradorlik, zamonaviy, texnologiya, innovatsiya, intensiv, eksport, import, mahsulot.

Jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotining globallashuv jarayonida transport infratuzilmasining roli va ahamiyati ortib bormoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, — Hayotning o'zi va o'tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o'zgartirishni ta'minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda.

Shu sababli yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha dasturlarning prognoz parametrlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish hamda ularga erishish lozim. Yakuniy maqsad – iqtisodiyot tarmoqlari uchun ishonchli infratuzilmani shakllantirish, shahar va qishloq aholisiga qulay shart-sharoit yaratib berishdir.

Mazkur sohani rivojlantirish, kelgusidagi vazifalar - Jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistik system) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu xalqaro tashkilot hisobotlari va Butunjahon banki ma'lumotlariga asosan jahon transport xizmatlari bozorining YAIM tarkibidagi miqdori 4,2 trl. dollar va 6,8 foiz ulushda baholanib, yiliga 110 mlrd. tn yuk va bir trilliondan ortiq yo'lovchilar tashilgan, transportda band bo'lgan xodimlar 100 mln. kishini tashkil etadi.

Davlat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biri tovar va xizmatlarning jahon bozoriga izchillik bilan kirib borishidan iboratdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, transport aloqalari jahon bozoriga kirib borishni jadallashtirishning muhim omilidir. O'zbekiston mintaqasida ishlab chiqarish miqyosining jahon xo'jalik yuritish tizimiga integratsiyalashuvi jarayoni bevosita transport aloqalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Jahon iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan integratsiyalashayotgan O'zbekistonda hozirgi kunda transport infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Respublika iqtisodiyotida so'ngi yillarda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar, yangi xo'jalik boshqaruvi tizimlarining shakllantirilishi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida bozor munosabatlariga asoslangan shakllarning joriy etilishi mazkur tizimning takomillashuviga olib keldi.

Bugungi kunda transport xizmatlarining keng doirasi dunyo miqyosida oshib borayotgan yuk va yo'lovchi oqimini ta'minlab turish orqali xalqaro aloqalarning rivojlanishiga, – global iqtisodiyotning shakllanishiga olib kelmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar, ya'ni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsiyalarning ommaviy ravishda joriy etilayotganligi, jumladan transport xizmatlari ko'rsatish sohasiga ham tegishli jarayon bo'lib ulgurdi.

Transport tizimining muhimligi iqtisodiy rivojlanish uchun maqsadli dasturni amalga oshirishni, har xil transport turlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks maqsadli dasturni amalga oshirishni taqozo etadi. Ushbu maqsadli dastur transport tizimini rivojlantirish uchun oldiga quyidagi muammolarni o'z oldiga qo'yadi:

- transport infratuzilmasini ekspluatatsiya qilish va rivojlantirish;
- yo'lovchi va yuk transporti xizmatlarini takomillashtirish;
- xalq xo'jaligini yuktashishga bo'lgan talabiniqondirish;
- xalqaro transport aloqalariva transport yo'laklaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish;
- transport infratuzilmasida harakat xavfsizligini ta'minlash va ekologik muammolar.

Farg'ona vodiysini mamlakatning boshqa hududlari bilan ishonchli transport aloqasini bog'lovchi, Qamchiq dovonidan 19,2 kilometr uzunlikdagi yer osti yo'li orqali o'tuvchi yangi Angren–Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini qurildi. Mazkur temir yo'lining foydalanishga topshirilishi bilan mamlakatimizni barcha hududlarini qamrab oluvchi yagona to'liq temir yo'l tizimi yaratildi.

Temir yo'l transportining ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, iqtisodiyot va madaniyat darajasini oshirish, aholi turmushini yaxshilashdagi rolga baho berish qiyin. Ushbu transport har qanday mintaqaning xalq xo'jaligi majmuidagi zarur bo'g'indir. Qatnovlarda temir yo'l transporti muhim o'ringa ega bo'lib, respublikaning jami yuk aylanmasining katta qismi uning xissasiga to'g'ri keladi. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ respublikada yirik kompaniya hisoblanib, temir yo'l transportining barcha sohalarida malakali mutahassislarga, yirik ilmiy- texnik bazaga, loyihaviy va qurilish quvvatlariga, xalqaro hamkorlik sohasida ulkan tajribaga ega.

—O'zbekiston temir yo'llaril 50 mingdan ortiq turli tiplardagi yuk vagoni va Germaniyada tayyorlangan refrejeratorlarga, 1450 yo'lovchilar tashiladigan vagonga ega. Tashiladigan yuklarning asosiy qismini qurilish materiallari (umumiy tashiladigan yuk hajmini 32%), paxta tolasi (17%), g'alla, sement, kimyoviy mahsulotlar va mineral o'g'itlar, ko'mir, sabzavot va boshqa xalq xo'jalik yuklari tashkil etadi.

Mamlakatimiz transport va logistika sohasining faol ishtirokchilaridan biriga aylangan «Unico Logistics Co Ltd.» (Janubiy Koreya) kompaniyasi xalqaro yuk tashuvlar borasida «GM Uzbekistan», «GM Powertrain Uzbekistan», «SamAuto», «Daewoo International», «Samsung» singari yirik ishlab chiqaruvchilarning yaqin hamkori sanaladi.

Mamlakatimizda transport-kommunikatsiya tizimini dunyo bandargohlari bilan bog'lashga qaratilayotgan e'tibor natijasida dengiz portlariga ega davlatlar bilan hamkorlik aloqalari kengaymoqda. «TransUzbekistan» Latviya Respublikasi milliy guruhida o'ndan ziyod kompaniya temir yo'l tashuvlari bilan bir qatorda bandargoh xizmatlarini taklif etmoqda.

2020 yilda respublikamizda quvvati 405 ming tonna bo'lgan 25 ta zamonaviy agrologistika korxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2021 yildan ular soni va xizmatlar salmog'i yanadada kengaydi. 2020 yilda tashqi savdo aylanmasi 36,3 milliard AQSH dollarini tashkil qilib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 5,4 milliard AQSH dollariga yoki 13,1 foizga kamaydi. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 15,2 milliard AQSH dollarini (13,4 foizga kamaygan), import hajmi 21,1 milliard AQSH dollarini (12,8 foizga kamaygan) tashkil qilgan.

Ayni paytda respublikamizning 10 mintaqasida tashkil etilgan 14 ta erkin iqtisodiy zonalarda yuzaga keladigan bojxona, transport – ekspeditorlik, omborxona va informatsion logistika sohasida to'liq kompleks xizmatlarini ko'rsatishga oid yuzaga kelayotgan talablarga nisbatan mutanosib ravishda transport-logistika markazlari tashkil etilmagan. Yurtimizda faqat 5 ta ya'ni "Navoiy" xalqaro intermodal logistik markazi, "Angren", "Toshkent", "Termiz" va "Pop" xalqaro logistika markazlari tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqda.

Logistika ishlab chiqarish, savdo-sotiq, taqsimot-ta'minot, moliya, xizmat ko'rsatish, ombor, axborot kabi o'nlab ustuvor yo'nalishlarga bo'linadiki, ular orasida transport logistikasi yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki bugungi kunda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida uning hissasi 40 foizni tashkil etadi.

Yuk terminalida yuklar ikki va undan ortiq transport turi yordamida yuborilgan joydan belgilangan manzilgacha yetkazib beriladi, aniqrog'i, multimodal xizmatlar ko'rsatiladi. Bunda konteynerlardan ham unumli foydalanilayapti. Mutaxassislarning fikricha, O'zbekistonda tashqi savdo yuklarini konteynerda tashish hajmi keyingi 10 yil ichida 5- 6 baravar ko'paygan.

Iqtisodiy lug'atimizdan "logistika" degan so'zning joy olganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. U aniq hisob-kitob qilish san'ati, oqilona boshqarish tizimi, degan ma'nolarni anglatadi.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz o'z tuzuklarida shunday deb yozadi: "Men saltanatimning bu tomonidan to naryog'igacha (bu Dehlidan to Bolqongacha deganidir) bir yosh bolaning boshiga bir lagan marvaridni qo'yib, yayov yo'lga solib yuborilsa, u manzilga etguncha yillar o'tar, bu bola ulg'ayar, lekin uning boshidagi lagandan bir dona marvarid to'kilmaydigan darajaga etkazdim...".

Demak, logistika qadim zamonlardan buyon yuklar muhofazasini o'z ichiga qamrab olgan va hozirgi kunda ham shunday. Qolaversa, mahsulotlarni eksport qilish, ichki bozorda tashish, ishlab chiqarishni yangilash,

innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi jarayonlarni mahorat bilan yo'lga qo'yish ham zamonaviy logistika xizmati bilan chambarchas bog'liq.

Logistika xizmatlari o'ziga xos tovar hisoblanib, transport turlari, tashuvlarning geografik hududlari va tashiluvchi yuklar turiga ko'ra farqlanuvchi xalqaro transport bozorlarida sotiladi va xarid qilinadi. Barcha xizmat turlarining umumjahon eksporti va importida transport xizmatlari ulushi tahminan 24%ni tashkil etadi (5,5 trln. AQSH doll.).

Tadqiqotlarimiz ko'rsatmoqdaki, ayni paytda dunyoda 3000 dan ortiq logistika markazi faoliyat ko'rsatayapti. Dunyoda xalqaro maqomdagi 80 dan ortiq transport yo'lagi bor, ularning 44 tasi yurtimiz hududidan o'tadi. O'zbekiston transportda tashuvlarni tartibga soluvchi to'qqizta xalqaro konvensiya hamda ikkita bitimga qo'shilgan. Bundan tashqari, Yevropa va Osiyo qit'alari, MDHning 30 ga yaqin davlatlari bilan tuzilgan hukumatlararo bitim, 70 dan ziyod mamlakat a'zo hisoblangan Avtomobil transporti xalqaro ittifoqi bilan hamkorlik yurtimizda logistika xizmatining yanada rivojlanishini ta'minlab kelmoqda. Xulosa o'rinda, logistika sohasini rivojlantirish uchun eng avvalo logistika xizmatlarini rivojlantirish orqali mahsulotlar eksportini diversifikatsiyalashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidov M.X., O'zbekiston Respublikasi davlat dasturlari va istiqbol strategiyasi, MONOGRAFIYA. -T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019 y.
2. Ochilov I., Yangibaev Kh. Issues of the Perspective of Socio-Economic Development of the Agricultural Sector of the Republic Of Uzbekistan. Solid State Technology. Volume: 63, Issue: 4 Publication, Scopus. - RR 173-179. Year: 2020.
3. Fayzullaev SH. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat xususiy sheriklik va marketing masalalari. Biznes-Ekspert, №5.- Toshkent: 2019. –B 23-29.